

GEOGRAFIYA TA'LIMIDA LUG'ATLARDAN FOYDALANISHNING SAMARALI USULLARI

ЭФФЕКТИВНЫЕ МЕТОДЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СЛОВАРЕЙ В ГЕОГРАФИЧЕСКОМ ОБРАЗОВАНИИ

EFFECTIVE METHODS OF USING DICTIONARIES IN GEOGRAPHY EDUCATION

A. Abdullayev

Geografiya yo'nalishi 3 - bosqich iqtidorli talabasi, Namangan davlat universiteti, Namangan, O'zbekiston.

Annotatsiya. Mazkur maqolada geografiya ta'limida lug'atlardan foydalanishning samarali usullari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan kompleks tahlil qilinib, geografik atamalar lug'atlari, izohli tushunchalar, terminologik manbalar bilan ishlashning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, o'quvchilarning geografik tafakkuri, nutqiy kompetensiyasi va ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Аннотация. В данной статье представлен комплексный теоретико-практический анализ эффективных методов использования словарей в географическом образовании. Освещается значимость работы с географическими терминами, толковыми понятиями и терминологическими источниками. Также разработаны научно-практические рекомендации, направленные на развитие географического мышления, речевой компетенции и научного мировоззрения учащихся.

Abstract. This article presents a comprehensive theoretical and practical analysis of effective methods of using dictionaries in geography education. It highlights the importance of working with geographical terminology, explanatory concepts, and terminological sources. In addition, scientific and practical recommendations are developed to enhance students' geographical thinking, communicative competence, and scientific worldview.

Kalit so'zlar: geografiya ta'limi, lug'atlar, geografik terminlar, nutq rivoji, interfaol metodlar, vizual vositalar.

Ключевые слова: географическое образование, словари, географические термины, развитие речи, интерактивные методы, наглядные средства.

Keywords: geography education, dictionaries, geographical terms, speech development, interactive methods, visual aids.

Kirish. Bugungi globalashuv va axborotlashuv jarayonida geografiya fanini o'qitishda o'quvchilarning ilmiy nutqini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, geografik tushunchalar va terminlarni to'g'ri anglash hamda ularni nutqda qo'llash o'quvchilarning bilim darajasini belgilovchi asosiy

omillardan biridir. Shu nuqtai nazardan, lugʻatlar bilan ishlash geografiya taʼlimining ajralmas qismi hisoblanadi.

Geografiya fanida koʻplab murakkab terminlar (masalan, “atmosfera bosimi”, “denudatsiya”, “urbanizatsiya”) mavjud boʻlib, ularni toʻgʻri tushunish va izohlash oʻquvchilarning ilmiy tafakkurini shakllantiradi [9; 1503-b.]. Lugʻatlar orqali oʻquvchilar nafaqat yangi terminlarni oʻzlashtiradi, balki mustaqil izlanish va tahlil qilish koʻnikmalarini ham rivojlantiradi [6; 128-b.]. Chunonchi, izohli lugʻatlardan foydalanish muhim metodik vosita hisoblanadi. Shu sababli geografiya taʼlimida lugʻatlardan samarali foydalanish metodlarini ishlab chiqish dolzarb pedagogik muammo hisoblanadi.

Mazkur maqolaning **maqsadi** geografiya taʼlimida lugʻatlardan samarali foydalanish metodlarini ilmiy-amaliy oʻrganish boʻlib, ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi **vazifalar** saralab olindi:

- lugʻatlardan samarali foydalanish uchun metodlarni ilmiy-amaliy tahlil qilish;
- oʻrganuvchining lugʻat boyligini oshirish uchun taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Natija va muhokama. Geografiya taʼlimida lugʻatlardan foydalanish oʻquvchilarning terminologik savodxonligini oshirish, tushunchalarni aniq va tizimli oʻzlashtirish hamda mustaqil fikrlash koʻnikmalarini rivojlantirishda muhim didaktik vosita hisoblanadi. Bu jarayon oʻquvchilarning bilimlarini chuqurlashtirib, ularning ilmiy dunyoqarashini kengaytiradi.

Binobarin, lugʻatlar bilan ishlash geografik tushunchalarni toʻgʻri anglash, ularni oʻzaro bogʻliqlikda idrok etish va amaliyotda qoʻllash koʻnikmalarini shakllantiradi. Natijada nazariy bilimlar mustahkamlanib, ularning amaliy ahamiyati ortadi [7; 393- b.]. Qolaversa, lugʻatlardan foydalanish oʻquvchilarning tahliliy va mantiqiy fikrlashini rivojlantirib, bilimlarni tizimli egallash hamda mustaqil ravishda kengaytirish imkonini beradi [1; 3- b.]. Bu

jarayon ularning ilmiy nutq madaniyatini shakllantirishda ham muhim o‘rin tutadi.

O‘rganuvchiga lug‘atlardan foydalanish quyidagi samarali usullar orqali amalga oshiriladi:

– *Lug‘atlar bilan tizimli ishlash:* Geografik lug‘atlar bilan muntazam ishlash o‘quvchilarda ilmiy terminologiyani to‘g‘ri o‘zlashtirishga yordam beradi [6; 129-b.]. Bu metod mustaqil bilim olish kompetensiyasini rivojlantirib, muntazam qo‘llash natijasida o‘quvchilar atamalarning mazmunini chuqur anglaydi, ularni amaliy vaziyatlarda to‘g‘ri qo‘llash ko‘nikmasi shakllanadi hamda ilmiy nutq aniqligi va mantiqiyligi oshadi.

– *Interfaol metodlar bilan integratsiya:* “Aqliy hujum”, “klaster”, “konseptual xarita” kabi metodlar lug‘atlar bilan ishlashni samarali qiladi [5; 680-b.]. Bunda, lug‘atlar bilan ishlash jarayonini faollashadi va samaradorligi oshadi. Natijada o‘quvchilar terminlarni chuqurroq anglab, ularni tizimli bog‘laydi.

– *Didaktik o‘yinlar orqali lug‘atni mustahkamlash:* Chunonchi, “Atamani top” yoki “Geografik zanjir” kabi usullar o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi [8; 1276-b.]. Bu o‘yinlar orqali lug‘atni mustahkamlash o‘quvchilarning o‘rganilgan terminlarini faol qo‘llashga undaydi. Natijada bilimlar mustahkamlanib, ularni tez va to‘g‘ri qo‘llash ko‘nikmasi shakllanadi.

– *Xarita va vizual vositalar bilan uyg‘unlashtirish:* Geografik atamalarni xaritalar bilan bog‘lash tushunishni osonlashtiradi [4; 108-b.]. Bu uslub, geografik terminlarning mazmunini aniq va ko‘rgazmali idrok etishni ta‘minlaydi.

– *Matn asosida lug‘at ustida ishlash:* Bunda, o‘rganuvchi geografik matnlarni o‘qish jarayonida yangi terminlar aniqlaydi va izohlaydi [9; 56-b.]. Bu esa o‘quvchilarning o‘qish ko‘nikmalari va tushunish darajasini sezilarli darajada oshiradi.

– *Sinonim va antonimlar orqali tushunchalarni kengaytirish:* masalan, “qurg‘oqchilik – namlik” kabi qarama-qarshi tushunchalar orqali bilim mustahkamlanadi va terminlar chuqurlashtiriladi [5; 681-b.].

– *Kontekstual o‘qitish:* Atamalarni real geografik jarayonlar bilan bog‘lab o‘rganish samarali natija beradi [3; 186-b.]. Bu atamalarni real vaziyat va matnlar orqali o‘rganishni qo‘llab-quvvatlaydi.

– *AKT vositalaridan foydalanish:* Elektron lug‘atlar va mobil ilovalar o‘quv jarayonini interaktiv qiladi [2; 98-b.]. Mazkur vositalaridan foydalanish lug‘atlarni vizual tarzda o‘rganishni ko‘rsatadi.

– *Real hayot bilan bog‘lash:* Tassavur uchun, iqlim, ob-havo yoki ekologik muammolar orqali terminlarni tushuntirish [4; 109-b.]. Bu bog‘lash bilan terminlarni amaliy kontekstda o‘rganishni yuqori samara beradi.

Ta’kidlash kerakki, lug‘atlardan samarali foydalanishda – *geografik terminlar lug‘atidan foydalanish* maxsus terminologik lug‘atlar orqali murakkab tushunchalar izohlanadi va ularning ilmiy mazmuni aniqlashtiriladi.

Xulosa. Geografiya ta’limida lug‘atlardan samarali foydalanish o‘quvchilarning ilmiy tafakkurini rivojlantirish, nutqiy kompetensiyasini shakllantirish hamda mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini takomillashtirishda muhim metodik vosita hisoblanadi. Geografik terminlar va tushunchalar bilan ishlash jarayonida lug‘atlar o‘quvchilarga murakkab ilmiy mazmunni anglash, tahlil qilish va uni nutqda to‘g‘ri qo‘llash imkonini beradi. Natijada, ularning nafaqat fan doirasidagi bilimlari chuqurlashadi, balki umumiy intellektual rivoj ham ta’minlanadi.

Binobarin, lug‘atlar bilan ishlash tizimli va maqsadga yo‘naltirilgan holda tashkil etilgandagina yuqori samaradorlikka erishiladi.

Shu bois lug‘atlar bilan ishlashni dars jarayonining ajralmas qismi sifatida tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. O‘quvchining lug‘at boyligini oshirish va rivojlantirish uchun quyidagi taklif va tavsiyalar beriladi:

- ✓ Har bir darsda 4–5 ta yangi geografik termin ustida tizimli ishlash;
- ✓ “Geografik lug‘at daftar” yuritishni yo‘lga qo‘yish;
- ✓ Elektron va raqamli lug‘atlardan foydalanishni kengaytirish;
- ✓ Lug‘atlar asosida mini-loyihalar va ijodiy topshiriqlarni tashkil etish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdullayev A.A. Geografik atamalarning izohli lug‘ati: [Uslubiy qo‘llanma]. – Namangan, 2026. – 217 b.
2. Allayarova S.U. Boshlang‘ich ta‘limda o‘quvchilar lug‘at boyligini oshirishda lingvopedagogik texnologiyalar va ularning samaradorligi // Maktabgacha va maktab ta‘limi. – 2026. – B. 733–734.
3. G‘iyosova F.B. Boshlang‘ich ta‘limda lug‘atlardan foydalanishni har kungi ishlar sistemasiga, insho, bayon ustida ishlash tizimiga kiritish // ICLPE konferensiya materiallari. – 2023. – B. 186–188.
4. Ismoilova D. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida lug‘at boyligini rasmlar yordamida o‘stirish // XXI asrda innovatsion texnologiyalar, fan va ta‘lim taraqqiyotidagi dolzarb muammolar. – 2023. – B. 108–110.
5. Ismoilova S.A. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining lug‘atini boyitishda interfaol metodlardan samarali foydalanish // O‘qituvchi va uzluksiz bilim olish: Boshlang‘ich sinf, maktabgacha ta‘lim. – 2023. – B. 679–684.
6. Safarov F. Boshlang‘ich sinflarda lingvistik o‘quv lug‘atlaridan foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish usullari // Jamiyat va innovatsiyalar. – 2022. – B. 127–137.
7. Soliyev A.S., Jumaxanov Sh.Z., Toshpo‘latov A.M. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya [Darslik]. – Namangan: «MASHRAB» nashriyoti, 2024. – 408 b.
8. Xamzayeva M. Boshlang‘ich maktab o‘quvchilarida chet tilidagi o‘qishni tushunishga o‘yinlar va tadbirlarning ta‘siri // European Science International Conference: Modern Educational System and Innovative Teaching Solutions. – 2023. – B. 1276–1278.
9. Ziyaqulova M.Sh., Raxmatova H.I. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining lug‘atlar bilan ishlash jarayonida kreativligini oshirish // Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences. – 2021. – B. 1503–1507.